

GURLAN ETIMOLOGIYASIGA DOIR BA'ZI QARASHLAR HAMDA GURLAN  
AFSONASINING BADIY TALQINI

**Alxiyeva Sitora Raximqul qizi,**

Samarqand davlat pedagogika instituti

I-bosqich magistranti

[sitoraalxiyeva@gmail.com](mailto:sitoraalxiyeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqola O.Matjonning "Haqqush qichqirig'i" asaridagi "Gurlan" afsonasining tarixi haqida. Tarixiy faktlar, shahar toponimi, tarixiy shaxslar bilan afsona mazmun-mohiyati mohirona ochib berilgan. Shoir tomonidan ushbu qadriyatlar negizida afsonaning badiiy xususiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Gurlan, Jurjon, Gurganj, Hevoq, Junaid, Isfandiyor, Gurlan darvozasi, urug' nomlari, Zamahshar, Toshhovuz, "Ko'r", "Lang".

**Аннотация.** Статья посвящена истории легенды «Гурлан» в произведении О. Матжона «Крик ястреба». Содержание и суть легенды мастерски раскрыты с помощью исторических фактов, топонима города, исторических личностей. Поэт раскрывает художественную природу легенды на основе этих ценностей.

**Ключевые слова:** Гурлан, Джурджон, Гургандж, Хевок, Джунаид, Исфандиёр, ворота Гурлан, родовые имена, Замахшар, Тошховуз, «Кор», «Ланг».

**Abstract.** The article is about the history of the legend "Gurlan" in O. Matjon's work "The Cry of the Hawk". The content and essence of the legend are skillfully revealed with historical facts, the toponym of the city, historical figures. The poet illuminates the artistic nature of the legend on the basis of these values.

**Keywords:** Gurlan, Jurjon, Gurganj, Hevok, Junaid, Isfandiyor, Gurlan gate, clan names, Zamakhshar, Toshkhovuz, "Kor", "Lang".

**Kirish.**

Har bir xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va madaniyati u yashab kelgan hududlar nomida ham mujassam bo'ladi. O'zbekiston hududidagi qadimiy toponimlar nafaqat geografik belgi sifatida, balki xalq tafakkurining mahsuli, tarixiy voqealarning guvohi hamdir. Shunday nomlardan biri – **Gurlan** bo'lib, u turli davrlarda olimlar, tarixchilar va folklorshunoslar e'tiborini tortgan.

Gurlan toponimining kelib chiqishi haqida bir qator ilmiy qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar uni qadimiy turkiy ildizlar bilan bog'lasalar, boshqalar forsiy manbalardagi talqinlarga murojaat qiladilar. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodida Gurlan nomi bilan bog'liq afsonalar ham mavjud bo'lib, ular hudud tarixini badiiy obrazlar orqali talqin etadi.

Ma'lumki, Gurlan Xorazmning qadimiy shahrlaridan hisoblanadi. U haqida aytilmagan laparlar, qo'shiqlar, rivoyatlar va afsonalar yo'q. Ular davr o'tgan sari og'izdan og'izga, bitikdan bitikga o'tib takomillashib boraveradi. Shahar haqidagi badiiy adabiyotlar xalq og'zaki ijodidan olinsa, uning etimologiyasi, toponimikasi haqidagi qarashlar shubhasiz, ilmiy adabiyotga borib taqaladi va bu turlicha bo'lishi mumkin. Birgina Gurlan leksikasining o'zida olimlar turfa qarashlarni bildirishgan. Quyida ushbu farazlar sxemasi ochib berilgan:

Professor A.Nabiyevning Tarixiy olkashunoslik kitobida keltirilishicha " Bir vaqtlar bu yerda kor chol va cho'loq kampir kochib kelgan. Ular hunarmand bolib, bozorda ozlari yasagan narsalarni sotishar ekan. Ular yasagan narsalar juda talabgir bolib, aholi kosiblarda bir sir bor deb ularning atrofiga joylasha boshlabdilar. Shunday qilib, bu yerlar Gurlan nomini olibdi[1].

Gurlan

Z.Dosimovning aytishicha, Gurlan sozining paydo bo'lishi turkiy-mogul davri bilan bogliqdir. Mahalliy aholi Gurlan asli Ko'rlang bo'lib aholi tomonidan Gurlan deya talqin qilinadi deydi. Mo'g'ul tilida bog', hovli ma,nosini anglatuvchi Xureelen sozi mavjud. Bu talqinga kora, toxtash joyi degan manoni anglatadi deyiladi[2].

YUNESKO akademigi Xudoyor Ollayorovning talqiniga kora, Gurlan sozi Gurlan-Gor olon, yani olon urug'ining g'ori, qabristoni degan manoni anglatadi deydi[3]

Urganch davlat universiteti dotsenti sharqshunos Abdulla Ahmedovning aytishicha, Gurlan so'zi shu yerda yashovchi kulon deb ataluvchi hayvon nomidan kelib chiqqan deya talqin qiladi[4]

Gurlan

Z.Dosimov ozining "Xorazm toponomikasi" kitobida Gurlan mo'g'ulcha Kurelen, Kuren so'zlaridan olingan bo'lib, "atrofi o'ralgan qishloq" degan ma'noni anglatadi deydi[5]

Suyun Qorayev va Z.Ziyotovlar gurlanda shu nom bilan ataluvchi kichik urug' bo'lgan. Gurlan sozi ham shu urug'lar nomidan kelib chiqqan deyilgan[6]

Albatta, har bitta qarash o'z mazmun-mohiyatiga ega. Ularni sharhlashdan oldin etimologiya so'ziga e'tibor qaratsak: **etimologiya** – so'zning kelib chiqishi haqidagi ta'limotni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Ushbu bo'lim bevosita mavzimizni ochib berishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Endi Gurlan haqidagi tarixiy-etimologik qarashlarga qaytadigan bo'lsak, Z.Do'simov bu nomni yurtimizga mo'g'ullar kirib kelgan davr bilan bog'laydi va mo'g'ulcha kurelen so'zini asos qilib ko'rsatadi. Akademik Xudoyor Olloyorov esa shahar "go'r" + "olon", ya'ni, olon urug'ining qabri degan so'zlardan kelib chiqqan, deya e'tirof etadi. Professor A.Nabiyev bu diyorda ko'r chol va cho'loq kampir yashagan va shar nomi shu ikkisi bilan barpo bo'lgan, degan fikrlarni ilgari suradi. Ushbu so'nggi keltirib o'tilgan faraz esa O.Matjonning Gurlan afsonasi ma'no-mazmuniga yaqinroqdir. Farqi: farazda kampir va chol bo'lsa, afsonada ikkisi ham chol deyilgan, biri ko'r, biri lang.

Xalq og'zaki ijodi har bir so'z, urf-odat va qadriyatni abadiyatga muhrlaydi. Balki aynan tuman nomi haqidagi shu qarashlar – ko'r va lang kishilar haqidagi rivoyat-u afsona haqiqatdir. O'z mulohazamni keltirsam sal boshqacharoq – bu joy nomini turkiy-mo'g'ul qabilalar kirib kelishi davridan ham uzoq muddat ilgari, qadimgi o'sha vohaning o'tror aholi zaboniga bog'layman: go'r -qabr, lang-cho'loq, ya'nikim, lang boboning qabri, shoirlar-u olimlar e'tirof etgan o'sha langboboning qabri nomiga qo'yilgan bo'lsa, ne ajab. Davr oshgan sari fikrlar ham turfa rangda jilolanib boraveradi. Yaxshi kishilar yurtga, elga fidoyi, jonkuyar insonlar esa afsona va rivoyatlardan joy olib, umrboqiy kuylanadilar. Mana shu kuylanishga sazovor bo'lgan qahramonlarimizdan biri – shoir afsonasidagi ko'r va lang bobolardir.

Afsona badiiyati qirg'indan omon qolgan bir ko'r va bir lang-shol chol va to'rt-besh nafar o'g'il-qiz go'daklarning taqdiri va ularning azob-uqubatlarni birlashib yengishlarini o'z ichiga oladi. Dastlab afsona boshida shoir shaharni e'tirof etib uning ta'rif-u tavsifiga u bilan bog'liq e'tiborga loyiq tarixiy voqealarga to'xtaladi. Ushbu faktlar quyidagi taqdimotga joylangan:

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-9

1. Heyvoqni necha bora qirg'in etgan Junaid Gurlan bilan sipo, qo'rqib salomlashgan.



2. Buxoro qolmay, Samarqand qolmay, kanizaklar yig'gan Isfandiorning mahramlari Gurlanga kelganda, tuyalariga o't qo'yib, quvilgan. O'g'irlab ketilgan gurlanlik qiz ham xonga rozilik bermagani uchun qirq quloqli qozonga tashlab, qaynatib o'ldirilgan.



3. Gurlan atrofi qishloqlarida ming, qiyot, qo'ng'iroq, mang'it, kot, bog'i olon, uyg'ur, qongli, qatag'on, to'qson, cho'bolonchi, sart, yuz, qipchoq...kabi urug'lar nomi saqlangan.



4. Gurlanning eng eski nomini chollar "To'rt to'qson gurlan" deb eslaydilar. Qadimgi Gurlanning to'rt ulkan darvozasi bo'lib, bittasi mashhur Zamahshar shahriga tutashgan joyda, ya'ni hozirgi Toshhovuz shahriga yaqin bo'lgan.



5. Amudaryo Xorazmdan oqa boshlaganiga qancha vaqt bo'lgan?! Gurlanliklar o'sha vaqtda paydo bo'lganlar. Ko'p qirg'inlardan omon o'tgan qurch, butmag'iz, og'zi bir, kotxudo, bek urug'i Gurlan! [7.56]

Gurlan toponimi bo'yicha turli davrlarda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, o'zbek va xorijiy olimlarning turkiy, forsiy hamda arabiy manbalarga asoslangan qarashlari mavjud. Ayrim tadqiqotchilar "Gurlan" so'zini qadimiy turkiy tillardagi "gur/kur" (qal'a, qo'rg'on) ildiziga bog'lasalar, boshqalari uni forsiy "gūr" (qabr, mozor) yoki "gol" (gullar) so'zlari bilan aloqador deb biladilar. Shuningdek, tarixiy yozma manbalarda bu hudud "Gurlan qal'asi" nomi bilan tilga olinadi.

Metodologik yondashuv sifatida maqolada qiyosiy-etimologik tahlil, tarixiy-geografik manbalarni solishtirish, shuningdek, folklorshunoslik metodlari qo'llanildi. Afsonaning badiiy talqinini o'rganishda ramziy obrazlar, xalq og'zaki ijodining poetik xususiyatlari ham tahlil qilindi.

### **Natija va muhokamalar**

Shuningdek, Shahar nomi "Gurgon", "Jurjon", hatto, "Gurganj" degan dunyoga ma'lum nomlar ham Gurlanning buzibroq aytilganini afsonada o'qishimiz mumkin. Birgina Jurjon degan shahr haqida ko'plab ertak va dostonlarda o'qiganmiz.jumladan, Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonida ushbu joy nomi ikki qahramonni bir-biriga uchratish uchun xizmat qilgandek, go'yo. Oygul yurti Jambil, Baxtiyor yurti Susambil. Jonini omon saqlab qolish uchun Tarlon ismli kekxa qul tomonidan Oygul sandiqqa solinib daryoga oqizib yuboriladi. Daryoga uch oy oqqan sandiq nihoyat, Jurjon degan yurtga kelib qoladi[8.42]. So'ngra xuddi shu yurtdan daryoga o'zini tashlagan Oygulni Jayhunbaliq yutib Susambilga olib boradi. Jayhunbaliq nomi shubhasiz, jayhun daryosiga tegishlilikni bildiradi. Jayhun daryosi esa Amudaryodir (Sayhun:Sirdaryo). Gurlan shahri Amudaryo atrofidagi vohalardan biri:

Jurjonning dalasida,  
Daryoning yoqasida  
Bir chol o'tin terardi,

Doim shunda yurardi[8.42].

Demak, Jurjon va Gurlan O.Matjon aytganidek, bir joy. Bu yerda afsona va ertakdagi holat ham mantiqan, ham geografik jihatdan ayni haqiqatni tarannum etgan.

Gurlan rivoyati so'nggi qirg'indan so'ng boshlanadi. Undan bir ko'zi ojiz va lang-shol yura olmaydigan chol-u to'r-besh nafar o'g'il-qiz omon qolishadi. Ikki chol go'daklar omon qolishi uchun xavotir oladilar, uqubat tortadilar, oqibat bir qarorga kelishadi: lang chol ko'zi ojiz choldan uni uzoqqa olib borib qo'yishini, o'sha yerda jon berishini buyuradi. Sherigi ham bu qarorga rozi bo'ladi. Langchol yo'lni aytib boradi, ko'r esa uni ko'tarib yurib boradi. Shunday qilib, u langcholni ko'tarib yo'lga tusharkan, cho'loq chol bir koshonani ko'rib qoladi va u yerning eshigi ochiqligi bois ichkariga kirishni taklif qiladi. Kirsalar noz-ne'matlar, yeguliklar bor emish. Quchoqlarini to'ldirib yana ortga - bolalar yoniga qaytadilar. Shu taxlit go'daklarni asrab qolgan ikki bobo jihatlariga qo'yilgan Gurlan bu.

Tadqiqot natijasida Gurlan toponimining kelib chiqishi yuzasidan yagona qarash mavjud emasligi aniqlandi. Aksincha, u ko'p qatlamli va murakkab semantik asosga ega. Turkiy manbalarda Gurlan "qal'a, mustahkam joy" ma'nosida talqin qilinsa, forsiy manbalarda esa "mozorlarga oid" yoki "gulzor" ma'nosiga yaqin talqinlar uchraydi.

Gurlan afsonasida esa bu hududning paydo bo'lishi, uning nomi bilan bog'liq xalqona tasavvurlar badiiy shaklda aks etgan. Afsonadagi ramziy obrazlar – suv, qal'a, mozor va gullar timsollari xalqning tarixiy xotirasi, diniy e'tiqodi va tabiatga munosabatini ifodalaydi. Bu esa Gurlan nomi nafaqat lingvistik-etimologik jihatdan, balki madaniy-ma'naviy mazmun jihatidan ham boy qatlamlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Hech bir nom o'z-o'zidan paydo bo'lmaganidek, afsona va rivoyatlar ham xalqdan olib, xalqqa beriladigan adabiy merosdir. Uning qanchalik haqiqatga yaqin ekanligini esa faqat ishonchli manbalarga tayanmasdan birgina o'sha voha ulug'lariga murojaatdan ham bilib olish mumkin.

Gurlan toponimi xalqimizning qadimiy tarixidan guvohlik beruvchi, turli manbalarda turlicha talqin etilgan murakkab nomlardan biridir. Uning etimologiyasi turkiy va forsiy ildizlar bilan bog'liq bo'lsa-da, xalq afsonalarida bu nom yanada boyitilib, ramziy va badiiy mazmunga ega bo'ladi.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-9

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Gurlan afsonasi nafaqat og'zaki ijod namunasi, balki tarixiy xotira va ma'naviy merosning muhim qismi hisoblanadi. Shu boisdan, Gurlan nomining ilmiy-etimologik talqinlari bilan bir qatorda, uning folklordagi badiiy ifodalarini ham o'rganish hudud tarixini yanada mukammal yoritishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xorazm va Xorazmliklar. Umid Bekmuhammad. Buxoro. 2023
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати, –Т., 1977. 45–46-бетлар
3. Xorazm va Xorazmliklar. Umid Bekmuhammad. Buxoro. 2023
4. Xorazm va Xorazmliklar. Umid Bekmuhammad. Buxoro. 2023
5. Xorazm va Xorazmliklar. Umid Bekmuhammad. Buxoro. 2023
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
7. Omon Matchon. Haqush qichqirig'I: (Qirq afsona).- T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.-136 b. 56-bet
8. Hamid Olimjon. Oygul bilan Baxtiyor: Dostonlar.T.:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.-64 b.-(Maktab kutubxonasi).
- 9.